

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR.

Kaxorova Zamira Safaraliyevna¹

¹ Toshkent davlat Iqtisodiyot Uneversiteti

“Mintaqaviy iqtisodiyot” kafedrası assistenti

Xayrullayev Javoxir¹

¹ Shi-75 guruh talabasi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 09.06.2025

Revised: 10.06.2025

Accepted: 11.06.2025

KALIT SO'ZLAR:

kichik
biznes, tadbirkorlik,
tadbirkorlik subyektlari,
ijtimoiy ma'suliyat,
demokratiya, ijtimoiy
integratsiya, bank
tizmlari.

Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida ma'lumot berishga harakat qilingan. Asosiy omillarni ko'rib chiqadigan bo'lsak bularning eng asosiylari shuki mehnatsevarlilik, ijtimoiy ma'suliyat, mamlakatdagi bank tizmlari rivojlanganlik darajasi, raqamli texnologiyalar, mamlakatdagi tadbirkorlik va biznesga bo'lgan muhit jozibadorligi, ijtimoiy integratsiya kabi omillarni o'z ichiga oladi. Bu omillar kichik biznes yoki tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish yoki rivojlantirishda bilvosita yoki bevosita ta'sir krsatadi.

KIRISH. Bugungi kunda jahon mamlakatlari jahonga chiqishda o'zida ishlab chiqarilgan mahsulot sifati va hajmiga etibor qaratmoqda. Barcha jahonning eng yirik iqtisodiyotga ega mamlakatlari ham mahsulotishlab chiqarish va mahsulotni sotishni o'ziga maqsad qilib qo'ygan. Mahsulot ishlab chiqarishda asosan ko'plab mamlakatlar kichik biznes va tadbirkorlikka e'tibor qaratishadi. Chunki tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish orqali nafaqat mahsulot ishlab chiqarish balki aholini katta qismini daromadlarini ham oshirish mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda ham kichik biznesni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda va kundan kunga kichik biznesva xususiy tadbirkorlikning ulishi Yalpi ichki mahsulot tarkibida ortib bormoqda. Hamda prizident qarorlari va turli tashkilot qarorlari

kichik biznesni tashkil etish va uni har tomonlama qollab-quvvatlash masalalarida yangi o'zgarishlarga olib kelmoqda.

Bu ishlarni yanada rivojlantirish uchun ko'plab chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti h.M.Mirziyoyevning "Yangi ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash parametrlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-son.

"Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlar qabul qilindi. Bu qarorlar mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim ahamiyatga ega.

2. Adabiyotlar sharhi.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil, keng ko'lamli islohotlar jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va ular uchun yanada qulay shart sharoit yaratish orqali xalqning turmush darajasini yaxshilash, aholining real daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash orqali ijobiy natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatadi. Mamlakatimizda iqtisodchi olimlaridan S.S.G'ulomovning "Tadbirkorlik va kichik biznes" nomli o'quv qo'llanmasida Kichik biznesning iqtisodiy o'sishga ta'siri ifodalaydigan fikrlar keltirilmagan bo'lsa-da, unga yaqin fikrlar bildirilgan [2]. Tadbirkorlik muhitiga ichki va tashqi omillarning ta'siri va ularning o'zgaruvchanligi to'g'risida qisqa fikr berilgan. B.Yu. Xodiev, M.S. Qosimova, A.N. Samadov kabi iqtisodchilarning mulohazalariga ko'ra "...tadbirkorlik muhiti asosan quyidagi to'rtta omil: huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o'zaro bog'liqligi natijasida amalga oshiriladi" [3]. U.V.Gafurov o'zining ilmiy ishlarida kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish, ishbilarmonlik muhitini kengaytirishga doir masalalarga e'tibor qaratgan [4]. Xorijlik olimlardan Y.Shumpetar fikricha, "iqtisodiy o'sishning negizida tadbirkorni ishlab chiqarish omillarini yangi kombinatsiyasini ishlatishga, qo'llashga bo'lgan intilishi yotadi va bu intilishning natijasi innovatsiya, yangiliklar hisoblanadi" [5]. R.Xizrich tadbirkorlik-bu qiymatga ega bo'lgan yangilik yaratish jarayoni bo'lib, vaqt va ishchi kuchini o'zlashtiradi, o'ziga moliyaviy, ma'naviy-ijtimoiy javobgarlikni qabul qilishga, shaxsiy manfaatni qanoatlantirishga va ma'lum daromad olishga olib keladi deb ta'riflagan [6].

Tahlil va natijalar

Asos qilib shuni aytish mumkinki mamlakatdagi ishchi kuchiga mos ish o'rinlari yaratish va ularning daromadlarini mos darajada ta'minlash asosiy maqsad qilib olingan va davlat asosiy yo'nalishlari ya'ni ishchi kuchini ish bilan ta'minlagan har bir ish beruvchiga turli grandlar yoki turli subsidiyalar berish amalda yo'lga qo'yilgan. Subsidiyalar hajmi ishchilarni malakasini oshirish uchun 6 oy davomida har oy bazaviy hisoblash miqdorining 4 barobari miqdorida subsidiya beriladi. Bundan tashqari, agar ish beruvchi ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamiga kirgan

aholini ishga qabul qilgan ish beruvchiga 12 oy davomida bazaviy hisoblash miqdorining 2 barobari miqdorida subsidiyalar ajratiladi. Shu bilan birga agar aholining ehtiyojman qismi hech qayerda tahsil olmasa yoki hech qayerda ishlamasa ularni qayta kasbga o'qitish yoki tahsil olishi uchun davlat tomonida turli grandlar joriy qilinmoqda. Bu barcha qilinayotgan ishlar aholi daromadlarini oshirish va ularning tadbirkorlik faoliyatini olib borishi uchun asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Bu barcha ijtimoiy sohalarda davlatning qo'llab quvvatlashi mamlakatga kirib keladigan investitsiya hajmini orttiradi deb aytish mumkin.

Biz ko'rgan omillarning asosiysi mamlakatdagi pul-kredit tizmlari yoki bank faoliyati asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ko'rishimiz mumkin. Mamlakatdagi banklarning olib borgan siyosati mamlakatimiz hududidagi kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari turli xil yo'nalishdagi biznes yoki tadbirkorlik olib borgan subyektlarga kam foizli kreditlar ajratish yoki davlat tomonidan turli soliqlardan ozod etish kabi rag'batlantirishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentning 2023-yilda 18-avgustidagi qaroriga muvofiq kichik biznesni rivojlantirishda asosiy tayanch qilib "Biznesni rivojlantirish banki" etib belgilandi. Bankni ustav kapitali 2023-2026-yillar davomida boshqichma bosqich 3 trillion so'mga yetkazish maqsad qilib olingan. Bank yil davomida asosiy biznes loyihalarni ko'rib chiqish va ularni tahlil qilib rivojlantirish uchun kreditlarni past foizda imtiyozli davrlarda ajratish kabi masalalar belgilab berildi. Prezidentning 2024-yilgi qaroriga ko'ra kichik biznesni rivojlantirmoqchi bo'lgan barcha kichik biznes egalari uchun 1,5 mlrd so'mgacha kreditlar joriy qilish yo'lga qo'yildi. Bu kreditlar 84 oygacha bo'lib boshlang'ich 24 oy imtiyozli davr sifatida belgilab beriladi. Asosiy maqsad qilib 2024-yil 1-yanvardan boshlab tashkil etilgan oilaviy bizneslarga imtiyozlar ajratish hamda ularni rivojlantirish uchun turli davr mobaynida turli soliqlardan ozod etish belgilangan. Prezident belgilab bergan nizomlardan ko'rish mumkinki mamlakatda YaIM mahsulot hajmini oshirishning eng asosiy omili kichik biznesni va tadbirkorlikni rivojlantirish maqsad qilib olingan.

Yillar davomida kichik biznes va tadbirkorlikning YaIMdagi ulishi ortib bormoqda va bundan tashqari bu raqamlarni yanada oshirish muhim masala hisoblanmoqda. Shu masalani muhim bo'lishiga asosiy maqsad shuki kichik biznes hamda tadbirkorlik nafaqat jahon darajasida balki hududiy masalalarni ham hal qilishda asosiy yo'nalish hisoblanadi. Quyidagi jadvalda kichik biznes hamda tadbirkorlikning YaIMdagi ulishini ko'rish mumkin:

Bugungi kunga kelib ko'plab kichik bizneslar mamlakatdagi rag'batlantirish hamda qo'llab-quvvatlash natijasida katta biznesga aylanmoqda hamda ularning ishlab chiqargan mahsulot hajmi bevosita mamlakat eksporti hajmiga hamda import hajmiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini ortishi yillar davomida amalga oshmoqda hamda mahsulotning ortib borishi ushbu hududlardagi mahsulot tannarxi pasayishi va aholining

sotib olish qobiliyatiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak kichik biznes hududiy mahsulot hajmining 50% dan yuqorisiga to'g'ri kelmoqda. Asosiy mahsulot ishlab chiqarish hududlar kesimida kichik biznesga asoslangan.


Asosan har bir hududdagi ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Klassifikator	Klassifikator_ru	Klassifikator_en	Klassifikator_uzc	2010	2011	2022Q1	2022Q2	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025-Q1
O'zbekiston Respublikasi	Республика Узбекистан	Republic of Uzbekistan	Ўзбекистон Республикаси	13,7	18,8	14,7	17,6	14,0	26,2	27,0	27,0	26,0	22,0	27,2	27,0	20,5	20,0	31,2	27,9	33,3	24,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	Республика Каракалпакстан	Republic of Karakalpakstan	Қорақалпоғистон Республикаси	11,5	15,2	17,4	20,1	11,2	17,0	23,0	28,4	7,6	8,6	10,2	20,5	21,6	20,3	16,4	24,3	34,4	24,6
Andijon viloyati	Андижанская область	Andijan region	Андижон вилояти	6,3	9,7	37,7	39,2	11,8	19,6	26,0	50,8	72,0	56,1	75,3	57,8	43,2	36,5	37,4	29,2	36,3	36,0
Buxoro viloyati	Бухарская область	Bukhara region	Бухоро вилояти	7,4	13,0	65,7	60,3	10,1	31,9	15,9	35,8	26,1	41,8	51,7	68,6	43,7	38,7	54,5	45,6	56,4	48,4
Jizzax viloyati	Джизакская область	Jizzakh region	Жиззах вилояти	43,5	41,4	44,2	43,4	17,6	54,7	31,1	41,8	61,4	75,8	90,3	67,1	61,6	46,3	49,3	43,3	62,4	84,9
Qashqadaryo viloyati	Кашкадарьинская область	Kashkadarya region	Қашқадарё вилояти	8,7	12,1	49,1	32,0	18,0	28,8	15,3	9,0	25,9	38,2	38,0	39,7	56,7	51,5	39,3	22,5	20,4	24,0
Navoiy viloyati	Навоийская область	Navoi region	Навоий вилояти	10,1	9,8	8,4	7,7	6,3	16,8	13,6	14,9	21,5	20,0	29,5	26,2	11,8	11,6	8,7	9,3	7,6	5,1
Namangan viloyati	Наманганская область	Namangan region	Наманган вилояти	86,9	54,1	39,5	41,7	48,6	52,4	72,9	75,9	87,4	90,0	84,5	81,8	52,0	49,7	44,4	42,5	49,3	40,4
Samarqand viloyati	Самаркандская область	Samarkand region	Самарқанд вилояти	61,0	73,4	49,9	46,3	67,8	83,7	69,1	74,6	82,4	82,6	79,6	76,7	57,2	45,7	50,8	41,1	45,1	36,4
Surxondaryo viloyati	Сурхандарьинская область	Surkhandarya region	Сурхондарё вилояти	18,7	35,8	49,6	51,7	26,2	43,9	12,1	34,0	36,9	69,3	87,9	73,4	63,1	60,0	64,0	71,5	86,5	84,0
Sirdaryo viloyati	Сырдарьинская область	Syrdarya region	Сирдарё вилояти	29,4	18,0	61,3	60,4	31,1	51,0	68,4	64,3	63,6	71,9	81,0	79,7	79,9	76,3	69,2	63,4	62,4	67,9
Toshkent viloyati	Ташкентская область	Tashkent region	Тошкент вилояти	16,9	30,5	23,8	25,0	23,2	29,8	34,5	39,8	28,7	20,0	26,4	29,8	28,1	23,4	29,8	32,5	34,7	32,1
Farg'ona viloyati	Ферганская область	Fergana region	Фарғона вилояти	18,2	14,6	30,7	42,7	13,6	22,5	23,7	36,7	36,1	44,2	45,7	53,4	57,4	49,0	51,6	68,2	61,1	46,4
Xorazm viloyati	Хорезмская область	Khorezm region	Хоразм вилояти	8,6	7,1	50,7	52,1	10,1	28,7	6,7	17,7	38,2	50,2	75,3	89,3	70,2	51,8	58,2	63,4	66,0	76,9
Toshkent shahri	город Ташкент	Tashkent city	Тошкент шаҳри	14,7	45,7	17,4	17,2	31,7	49,3	33,3	24,1	18,3	19,4	25,0	23,0	19,8	17,8	21,7	21,2	20,9	22,3

Quyida kichik biznesning umumiy eksportdagi ulishini ko'rish mumkin hamda bu ko'rsatkichlarni hajmi eng yuqoriligi bo'yicha Jizzax hamda Xorazm viloyatlariga to'g'ri kelmoqda va bu ko'rsatkichlar yildan yilga ortib bormoqda.

Ko'plab davr mobaynida turli xil cheklovlar natijasida biznes yuritish yoki tadbirkorlik faoliyatlarini olib borish har tomonlama qiyin kechgan, chunki har bir biznesni tashkil etish uchun davlat ro'yxatidan o'tish va soliqlar yoki infratuzilmadan foydalanish juda qiyin kechgan. Bundan tashqari har bir tadbirkorlik subyektkari soliqlar to'lash hamda ularni mahsulotlarini yetkazib berish bilan bog'liq muommolar ko'plab bizneslarni tugatilishiga olib kelgan bugungi kunda biznesni tashkil etishning raqamli formatlari tashkil etilgan va avvalgidek ro'yxatdan o'tkazish uchun ko'p vaqt talab etilmaydi. Shuni har tomonlama tahlil

qiladigan bo'lsak yillar davomida kichik biznesning har bir hududda sonini tahlil qilsak:



Kichik biznsening mamlakat hududlar kesimidagi hajmi yildan yilga o'zgarishga uchragan asosan Toshkent viloyati va Toshkent shahri kichik biznesda band aholi soni kamayib bormoqda chunki kichik biznes katta yoki o'rta biznesga o'zgarimoqda. Shunday qilib asosiy hududlar Andijon va Namangan hududlari egallamoqda bundan tashqari har bir hududlarda aholining hajmining asosini kichik biznesdagi band aholi tashkil qilmoqda. Toshkent viloyati hamda Toshkent shahridan boshqa barcha hududlarda bu ko'rsatkich juda yuqori ya'ni 70% dan yuqori. Eng yuqori ko'rsatkichni egallab turgan Andijon aholisining 80 dan ortigi kichik biznes bilan shug'illanadi.

Aholini kichik biznes bilan shug'ullanishga davlat tomonidan bo'lgan cheklovlar yildan-yilga ortib bormoqda hamda har bir biznes yurituvchi aholiga turli davlat tomonidan subsidiyalar berilmoqda. Endilikda oilaviy kichik biznes tashkil qilgan tadbirkorlar daromad solig'ining 50% dan ozod qilinadi hamda har bir soha bo'yicha faoliyatini mutazam davom ettirishi mumkin. Endilikda kichik biznesni ro'yxatdan o'tkazish avvalgidek ko'p vaqt talab qilmaydi hamda masofadan turib amalga oshirish mumkin. Mamlakatdagi tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash uchun ro'yxatdan o'tkazish uchun to'lovlar miqdori qisqartirildi hamda talab

etiladigan hujjatlar soni ham kamaytirildi. Har bir tadbirkor yoki kichik biznesning egasi o'ziga tegishli bo'lgan soliq miqdorini onlayn tarzda kuztish imkoniyatiga ega hamda uni masofadan to'lash huquqi ham mavjud.

Xulosa qilib shuni keltirish mumkinki mamlakatdagi qonunlar ustuvorligi hamda kredit tizimining takomillashgan, transport xarajatlari hamda ishchi kuchi hajmining ko'pligi va infratuzilmaning yaxshiligi kichik biznesni yuritish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Kichik biznesni rivojlanishi nafaqat aholining daromalari ortishi, ularning ish bilan bandlik darajasini oshirish va mamlakatda sifatli va arzon mahsulot yaratib eksportga asoslangan tizimni yo'lga qo'yishga asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Sobirov Otabek Olimjonovich. The Cost Of Forming A Management Account In Business Entities. Journal of Pharmaceutical Negative Results. DOI: 10.47750/pnr. 2022. 13.S07-537. 4295-4298.

2. AMERICAN Journal of Public Diplomacy and International Studies www.grnjournal.us 2. Sobirov O. Directions for improving Management accounting in business entities. journal of management value & ethics. Oct-Dec. 20 Vol. 10 No. 04 SJIF 7.201 & GIF 0.626. INDIA. 2020. 5-8 b3.

3. Собиров О.О. Бошқарув хисобининг моҳияти ва уни ташкил этишда харажатларнинг ўрни. Scientific Journal of "Internatsional Finance & Accounting" - ТМИ. Тошкент. 2022 йил август. Issue 4. ISSN: 2181-1016.4.

4. O.O.Sobirov., M.Karimova. "Problems of Effective use of Key Equipment in Enterprises". "International journal of Formal Education". Volume: 2 Issue: 6 | Jun –2023 ISSN: 2720-6874.